TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI (O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

Jumayev Asadbek Shuhrat o’g’li
E-mail: jumayevasadbek3244@gmail.com
Telefon: +998772924444

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlari tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlarini tatbiq etish tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyatini kuchaytiradi, bozordagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-sonli qarori bilan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi tasdiqlandi. Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida biznesni raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishi, moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish, marketing va ishlab chiqarish jarayonlarini sun’iy intellekt asosida boshqarish yo‘nalishlari faol rivojlanmoqda. Shu sababli, innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish tadbirkorlikning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston tadbirkorlik subyektlarining aksariyati hali ham an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanmoqda. Bu esa resurslardan samarali foydalanishni cheklaydi va bozor raqobatida orqada qolishga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, axborot texnologiyalarini joriy etish — innovatsion rivojlanishning asosiy shartidir.

Bugungi kunda kichik va o‘rta bizneslar faoliyatida 1C, FOM, Odoo, Zoho CRM, ERPNext kabi integratsiyalashgan dasturiy tizimlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tizimlar orqali korxona faoliyati, moliyaviy operatsiyalar, ombor hisoboti, marketing strategiyalari va mijozlar bilan aloqalar yagona platformada boshqariladi. Masalan, Toshkent shahridagi ayrim xususiy ishlab chiqarish korxonalari ERP tizimi joriy etilgach, ishlab chiqarish xarajatlarini 10–15% gacha kamaytirishga, mahsulot yetkazib berish jarayonini 2 barobar tezlashtirishga erishgan. Shuningdek, yana bir misol sifatida farmatsevtika sohasida keng qo’llaniladigan FOM (Future Online Media) platformasini ham aytib o’tishimiz mumkin, ushbu platforma kichik

tadbirkorliklarga ham keng qulayliklar yaratdi, bir muncha ish jarayonlarini raqamlashtirishda, vaqtni tejashda va eng muhim jihatlardan davlat soliq organlari bilan integratsiyalashtirilgani hisobotlar jarayonini ham osonlashtirdi.

Shuningdek, sun'iy intellekt va big data texnologiyalarining joriy etilishi tadbirkorlik faoliyatini tahliliy jihatdan optimallashtirish imkonini bermoqda. Ma'lumotlar tahlili asosida xaridorlar xulqini prognoz qilish, talabni baholash va marketing strategiyasini avtomatik sozlash imkoniyati paydo bo'lmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida davlat tomonidan ham muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq "Innovatsion rivojlanish agentligi" hamda "IT Park" faoliyati kengaytirilib, bizneslar uchun IT-startaplarni moliyalashtirish dasturlari yo'lga qo'yildi. Bu dasturlar orqali tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatiga IT yechimlarini kiritish uchun grant va imtiyozli kreditlardan foydalanmoqda.

Ammo amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud:

- ko'plab korxonalarda IT infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan;
- xodimlar raqamli savodxonligi past;
- axborot xavfsizligi tizimlari zaif;
- dasturiy mahsulotlarning lokalizatsiyasi (o'zbek tiliga moslashtirilgan variantlar) yetishmaydi.

Bu muammolarni hal etish uchun tadbirkorlik subyektlarida raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish, axborot tizimlari auditini o'tkazish, hamda xodimlarni IT-kompetensiyalar bo'yicha qayta tayyorlash zarur.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarish tizimi hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bu yo'nalishda sezilarli o'sish kuzatilmoqda.

Takliflar:

1. Tadbirkorlik subyektlarida raqamli boshqaruv markazlarini tashkil etish;
2. Davlat-xususiy sheriklik asosida biznes uchun IT yechimlarini yaratish dasturlarini rivojlantirish;
3. Tadbirkorlarni axborot xavfsizligi, ERP tizimlari va raqamli marketing sohalarida muntazam o'qitish;
4. Mahalliy IT-kompaniyalar tomonidan milliy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishni rag'batlantirish.

Natijada, innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarish nafaqat korxona samaradorligini oshiradi, balki O'zbekistonning raqamli iqtisodiyot sari dadil qadam tashlashiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori — “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2024-yil.
3. Porter M. “Competitive Advantage” – Harvard Business Review, 1985.
4. IT Park Uzbekistan – Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha 2024-yilgi statistika.

